

## JANGOVAR HARAKATLAR ISHTIROKCHILARI VA ULARNING HUQUQIY HOLATI

*mayor Juraev O.M.*

*SHG'HO serjantlar tayyorlash maktabi  
shaxsiy tarkib bilan ishlash uslubi, harbiy pedagogika psixologiya sikli o'qituvchisi*

Bugungi Jangovar harakatlar jarayonida Jangovar harakatlar ishtirokchilari Qurolli to'qnashuvlar huquqi me'yorlarini, jangovar harakatlarni olib borishning huquqiy asoslari, Qurolli to'qnashuvlar huquqi bo'yicha harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini to'laqonli anglab etishlari va unga amal qilishlarini taqozo etadi.

Bundan kelib chiqib maqolada berilayotgan ma'lumotlarning Bo'linmalarni asosiy maqsadlaridan biri, jangovar harakatlar ishtirokchilarining huquqiy maqomini, kombatantlar va kombatant bo'lmaganlar, ularning farqi va huquqiy holati, urushda aziyat chekkanlarni xalqaro huquqiy himoya qilish, urushda aziyat chekkanlar, daraksiz yo'qolgan va halok bo'lgan shaxslar, davlatlar va jismoniy shaxslarning xalqaro gumanitar huquq normalariga rioya qilishi va ularni buzganligi uchun javobgarlik, jangovar harakatlarni olib borishni man qilingan usullari kabi ma'lumotlarni o'rganishdan iborat.

Jangovar harakatlar ishtirokchilarining huquqiy maqomi: harbiy josus, diversant, harbiy razvedkachi, ko'ngilli, yollangan, fuqaro shaxslarning xalqaro qonunlardagi maqomi bo'yicha tushinchalarni yoritishni lozim topdi.

**Josuslar tushunchasi**, - bu yashirincha yoki aldov yo'li bilan harakat qilib, dushman nazoratidagi hududda axborot to'playdigan shaxslardir.

**Yollanma askar**- bu to'qnashuv jarayonida o'z foydasini ko'zlab qatnashadigan shaxslar yollanma askar deb hisoblanadi. Ular urushayotgan davlat muntazam armiyasining harbiy xizmatchilari bo'lmaydi va to'qnashuvda ishtirok etmayotgan biron-bir davlatning topshirig'i bilan xizmat vazifalarini bajarmaydi. Qisqaroq qilib aytganda, yollanma askar harbiy to'qnashuvda o'ziga foyda olish maqsadida jang qilish uchun maxsus jalb etilgan shaxs tushiniladi.

**Fuqaro shaxslar tushinchasi, fuqaro shaxs**-bu qurolli kuchlarga mansub bo'lmagan va har qanday dushmanlik harakatlaridan o'zini tiyib turuvchi har qanday shaxsdir.

**. Kombatantlar va kombatant bo'lmaganlar, ularning farqi va huquqiy holati**

**Kombatantlar** – bular qurolli to'qnashuvda bevosita ishtirok etadigan, urush qonunlari va odatlariga rioya qiladigan, qurolli kuchlar tarkibiga kiradigan shaxslardir (tibbiy va ruhoniylar bundan mustasno). Boshqacha qilib aytganda, bular mamlakat qurolli kuchlarining, lashkar va ko'ngillilar otryadlarining shaxsiy tarkibi bo'lib, ko'ngillilar otryadlariga o'z tobeliklari uchun javobgar shaxs boshchilik qilishi shart. Tashqaridan qaraganda, kombatantlarni

harbiy kiyim, doimiy tanish belgilari yoki oshkora qurol olib yurish farqlantirib turadi.

**Kombatant bo‘lmaganlar** – bular jangovar harakatlarda bevosita ishtirok etmaydigan shaxslar, xususan, harbiy bo‘lmagan shaxslar, harbiy tibbiy xodimlar, harbiy ruhoniylar, bemorlar, yaradorlar va asir olinganlardir.

**Harbiy asirlar** – bular dushman qo‘liga tushib qolgan kombatantlardir. Bulardan tashqari quyidagi toifalarga kiruvchi shaxslar harbiy asirlar maqomini olish huquqiga ega: qo‘shimcha tibbiy xodimlar; qurolli kuchlarga hamrox bo‘luvchi harbiy bo‘lmagan shaxslar; bexosdan qurollangan va dushmanning hujum qilib kelayotgan kuchlariga qarshi chiqayotgan harbiy bo‘lmagan shaxslar; qo‘mondonlik tarkibiga ega bo‘lgan, QTX talablarini bajaradigan, tanish belgilariga yoki harbiy kiyimga ega bo‘lgan va oshkora qurol olib yuradigan ko‘ngilli militsiya otryadlari.

**Tibbiy xizmat** – faqat tibbiy faoliyat, tibbiyot muassalarini ma‘muriy-xo‘jalik jihatidan ta‘minlash uchun va tibbiy maqsadlarda odamlar va yuklarni tashish uchun mo‘ljalangan.

**Ruhoniylar (harbiy va harbiy bo‘lmagan) xodimlar** – faqat diniy vazifalarni bajarish bilan band bo‘lgan hamda qurolli kuchlarga, harbiy bo‘lmagan tibbiy xizmatlarga, fuqaro mudofaasi tashkilotlari ixtiyorida harbiylar, shuningdek, harbiy bo‘lmagan shaxslardir. Tegishli shaxslar va ob’ektlarning tibbiy yoki ruhoniylar maqomi ularning kombatantlar yoki harbiy ob’ektlarga mansub bulishini istisno etadi.

### **Yordamga muhtoj shaxslar: yaradorlar va bemor shaxslar, kema halokatiga uchraganlar**

**Yaradorlar va bemorlar** – bular shikastlanishi, kasalligi yoki boshqa jismoniy yoxud ruhiy kamchiligi, nogironligi tufayli tibbiy yordamga yoki parvarishga muxtoj bo‘lgan va biron-bir dushmanlik harakatlaridan o‘zini tiyib turgan harbiylar, shuningdek harbiy bo‘lmagan shaxslardir.

**Kema halokatiga uchraganlar** – bular dengizda yoki boshqa suvlarda o‘zlari, kema yoki uchir apparati baxtsiz hodisaga uchrashi natijasida xatar ostida qolgan va biron-bir dushmanlik harakatlarini qilmaydigan harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiy bo‘lmagan shaxslardir. Bu shaxslar qutkaruv operatsiyalari tamom bo‘lgunicha kema halokatiga uchraganlar maqomini saqlab qoladilar.

### **Harbiy bo‘lmagan aholi bilan muomala qoidalarini**

**Harbiy bo‘lmagan shaxslar** – bu qurolli kuchlarga mansub bo‘lmagan va har qanday dushmanlik harakatlaridan o‘zini tiyib turuvchi har qanday shaxsdir.

### **Davlatlar va jismoniy shaxslarning xalqaro gumanitar huquq normalariga rioya qilishi va ularni buzganligi uchun javobbarlik**

Xalqaro gumanitar huquq insonparvarlik prinsiplariga asoslangan hamda qurolli to‘qnashuvlar oqibatlarini cheklashga qaratilgan normalar majmuidir. U jangovar harakatlarda bevosita ishtirok etmaydigan yoki ishtirok etishni to‘xtatgan shaxslarni himoya qiladi va urush olib borish vositalari hamda usullarini cheklaydi. Xalqaro gumanitar huquq (XGH) «urush huquqi» yoki «qurolli to‘qnashuvlar huquqi» deb ham ataladi.

Xalqaro gumanitar huquq davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquqning bir qismidir. Xalqaro huquq davlatlar o'rtasida tuzilgan va ko'pincha shartnoma yoki konvensiyalar deb ataladigan bitimlarni, shuningdek, davlatlar tomonidan huquqiy majburiyatlar sifatida tan olinadigan umumiy prinsiplar va odatlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro gumanitar huquqni shakllantirish manbai dunyoning hamma dinlari va madaniyatlarida uchratish mumkin bo'lgan qoidalar va normalardan iborat. Hozirgi zamon xalqaro gumanitar huquqining rivojlanishi 1860 yildan boshlangan. Ushandan beri davlatlar hozirgi sharoitda urush olib borishning achchiq tajribasiga asoslangan hamda insonparvarlik talablari bilan davlatlarning harbiy talablari o'rtasida qat'iy muvozanat o'rnatishga mo'ljallangan bir qator oddiy qoidalarni e'tirof etishga rozilik berdilar. Xalqaro hamjamiyat o'sib borgan sari xalqaro gumanitar huquqning rivojlanishiga o'z ulushini qo'shgan mamlakatlar soni ham ko'payib bordi. Bugun ushbu huquqni chinakam universal huquqiy tizim deb hisoblash mumkin.

Xalqaro gumanitar huquq asosan 1949 yildagi to'rtta Jeneva konvensiyasida o'z aksini topgan. Amalda dunyoning hamma mamlakatlari o'zlarini mana shu xalqaro-huquqiy xujjatlar bilan bog'lashga rozilik berdilar konvensiyalarning qoidalari 1977 yilda ularga ikkita Qo'shimcha Bayonnoma qabul qilinishi tufayli yanada rivoj topdi.

Xalqaro gumanitar huquqning ko'pgina normalari bugungi kunda oddiy normalar, ya'ni hamma davlatlarga nisbatan amal qiladigan umumiy normalar sifatida e'tirof etilmoqda.

Xalqaro gumanitar huquq ikki sohani qamrab oladi, bular:

1) harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan yoki ishtirok etishni to'xtatgan shaxslarni himoya qilish;

2) urush olib borish usullarini, ya'ni ayrim qurol turlarini va harbiy harakatlar olib borish usullarini, shu jumladan, harbiy taktikani chegaralash.

Xalqaro gumanitar huquq harbiy harakatlarda ishtirok etmayotganlarni himoya qiladi, ya'ni harbiy bo'lmagan aholini, tibbiy xodimlar va ruhoniylarni himoya qiladi. Shuningdek, harbiy harakatlarda ishtirok etishni to'xtatganlar ham uning himoyasidadir. Bundaylar toifasiga yaradorlar, kema halokatiga uchraganlar, bemorlar va asirlar kiradi. Xalqaro gumanitar huquqqa muvofik bunday huquq ximoyasida bo'lganlarga hujum qilish taqiqlanadi. Ularning jismoniy dahlsizligiga tajovuz qilish hamda ularni xo'rlash va kamsitish taqiqlanadi. Yaradorlar va bemorlarni olib ketish hamda ularga yordam berish zarur. Shuningdek, harbiy asirlarga va to'qnashuv munosabati bilan ko'lga olingan shaxslarga tegishli oziq-ovqat, uy-joy va sud kafolatlari berilishini nazarda tutuvchi puxta batafsil ishlab chiqilgan normalar ham mavjud.

**Urush huquqini, ya'ni jang olib borish qoidalari, gumanitar huquqning farqlovchi belgilarini tanishtirish harbiy asirlar, yaradorlar, bemorlarga bo'lgan munosabatlar haqidagi amaldagi qoidalarni harbiy xizmatchilarni o'qitish bo'yicha komandirlarining faoliyati**

Xalqaro gumanitar huquq ikki sohani qamrab oladi, bular:

1) harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan yoki ishtirok etishni to'xtatgan shaxslarni himoya qilish;

2) urush olib borish usullarini, ya'ni ayrim qurol turlarini va harbiy harakatlar olib borish usullarini, shu jumladan, harbiy taktikani chegaralash.

Xalqaro gumanitar huquq harbiy harakatlarda ishtirok etmayotganlarni himoya qiladi, ya'ni harbiy bo'lmagan aholini, tibbiy xodimlar va ruxoniylarni himoya qiladi. SHuningdek, harbiy harakatlarda ishtirok etishni to'xtatganlar ham uning himoyasidadir. Bundaylar toifasiga yaradorlar, kema halokatiga uchraganlar, bemorlar va asirlar kiradi. Xalqaro gumanitar huquqqa muvofiq bunday huquq himoyasida bo'lganlarga hujum qilish taqiqlanadi. Ularning jismoniy daxlsizligiga tajovuz qilish hamda ularni xo'rlash va kamsitish taqiqlanadi. Yaradorlar va bemorlarni olib ketish hamda ularga yordam berish zarur. Shuningdek, harbiy asirlarga va to'qnashuv munosabati bilan qo'lga olingan shaxslarga tegishli ozik-ovkat, uy-joy va sud kafolatlari berilishini nazarda tutuvchi puxta batafsil ishlab chiqilgan normalar ham mavjud.

Harbiy kasalxonalar va sanitariya-transport vositalari kabi ayrim joylar va ob'ektlar ham himoya qilinishi kerak va ularga hujum kilinmasligi kerak. Xalqaro gumanitar huquq himoya qilinishi kerak bo'lgan shaxslar va joylarni tanib olish uchun foydalanishga xizmat qiladigan, yaqqol ajralib turadigan bir qancha emblemalar va signallar bo'lishini nazarda tutadi. Qizil Xoch va Qizil Yarim oy shunday emblemalar jumlasiga kiradi.

#### **Xalqaro gumanitar huquq urush olib borishda:**

a) harbiy harakatlarda ishtirok etmayotganlar, masalan, harbiy bo'lmagan shaxslar bilan urush harakatlarida ishtirok etayotgan shaxslarni bir-biridan farqlash imkonini bermaydigan;

b) ortiqcha buzilishlarga yoki ortiqcha azob chekishlarga yo'l qo'yadigan harakatlarni taqiqlaydi.;

v) tabiiy muhitga jiddiy yoki uzoq muddatli zarar keltiradigan har qanday vositalari va usullarini taqiqlaydi.

Chunonchi, xalqaro gumanitar huquq doirasida portlovchi o'qlar, kimyoviy va biologik qurol, ko'zni ko'r qiladigan lazer quroli taqiqlanadi.

**XULOSA** sifatida shuni aytish lozimki, xalqaro gumanitar huquq xalqaro qurolli to'qnashuvlar bilan xalqqaro xarakterda bo'lmagan qurolli to'qnashuvlar o'rtasida fark bulishini nazarda tutadi. Xalqaro qurolli to'qnashuvlar jumlasiga hech bo'lmaganda ikki davlat ishtirok etadigan to'qnashuvlar kiradi. Bunday to'qnashuvlarga to'rtta Jeneva Konvensiyaida va II Qo'shimcha bayonnomada o'z aksini topgan Konvensiyalar uchun umumiy bo'lgan 3-modda va II Qo'shimcha bayonnomada beriladi. Shunga qaramay, xalqaro qurolli to'qnashuv yuz bergan taqdirda ham, xalqaro xarakterda bo'lmagan qurolli to'qnashuv yuz bergan taqdirda ham xamma taraflar xalqaro gumanitar huquq normalariga qattiq rioya kilishlari kerak.